


2020- YILDA NAVOIY VILOYATIDA MADANIYAT MUASSASALARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI




O'zbekiston madaniyati – teatrlar, muzeylar, kutubxonalar, kinoteatrlar, sirklar, konsert zallari, madaniyat va istirohat bog'lari, botanika bog'lari, hayvonot bog'lari, madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniy meros ob'ektlari va boshqa.

KUTUBXONALAR

Navoiy viloyatida 19 ta kutubxonalar faoliyat yuritadi. Shundan, viloyat kutubxona markazi va 9 ta tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari, Navoiy viloyati xalq ta'lifi boshqarmasi tasarrufidagi axborot resurs markazi, Navoiy viloyat xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti axborot resurs markazi, Navoiy viloyati hokimligi madaniyat boshqarmasi viloyat ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi, oliy ta'lif muassasalarida 2 ta axborot-resurs markazlari, O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining Navoiy akademik litseyi axborot resurs markazi hamda Navoiy kon-metallurgiya kombinati xodimlari kasaba uyushmasiga qarashli 3 ta kutubxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.

2020- yilda Navoiy viloyatida kutubxona muassasalari soni, foizda




2010-2020 yillarda Navoiy viloyatida kutubxona muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

| | 2010- y. | 2015- y. | 2017- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---------------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Kutubxona muassasalari soni, birlikda | 104 | 102 | 102 | 19 | 19 |
| Kutubxona fondi, ming nusxa | 2578,7 | 2174,4 | 2117,4 | 1136,8 | 1200,2 |
| Foydalanuvchilar soni, ming kishi | 342,2 | 380,5 | 400,2 | 137,1 | 102,3 |
| Berilgan kitoblar soni, ming nusxa | 4380,8 | 5474,7 | 5325,5 | 1609,0 | 944,6 |


2020- yilda kutubxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi

| | Kutubxonalar soni, birlikda | Kutubxona fondi, ming nusxa | Foydalanuv- chilar soni, ming kishi | Foydalanishga berilgan kitob va jurnallar, ming nusxa |
|------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|---|--|
| Navoiy viloyati | 19 | 1200,2 | 102,3 | 944,6 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Navoiy | 5 | 605,0 | 39,8 | 447,1 |
| Zarafshon | 2 | 68,7 | 3,7 | 37,5 |
| G'ozg'on | - | - | - | - |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Konimex | 1 | 66,1 | 3,8 | 47,2 |
| Karmana | 4 | 108,7 | 28,4 | 175,4 |
| Qiziltepa | 1 | 75,9 | 1,9 | 22,7 |
| Navbahor | 1 | 29,8 | 6,1 | 36,4 |
| Nurota | 1 | 80,6 | 6,5 | 54,7 |
| Tomdi | 1 | 12,1 | 0,9 | 4,9 |
| Uchquduq | 2 | 72,5 | 5,4 | 54,7 |
| Xatirchi | 1 | 80,8 | 5,8 | 64,0 |

2020- yilda kutubxona muassasalari foydalanuvchilari soni, ming kishi



2020- yilda tillar bo'yicha kutubxona muassasalari kitob fondi, ming nusxa




MUZEYLAR

Navoiy viloyatida 2020- yilda jami muzeylar soni 5 tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni 2 taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, 17,2 ming kishidan iborat bo'lib, ulardan o'quvchi va talabalar ulushi 73,3 % (12,6 ming kishi) tashkil etgan.

Muzeylarda 123 ta ma'ruzalar o'qilgan. Muzeylar tomonidan jami 57 ta ko'rgazmalar, 687 ta ekskursiyalar tashkil qilingan. Ekskursiya tarzida 9,9 ming kishi qatnagan.

2010-2020 yillarda faoliyat ko'rsatayotgan muzeylar soni, birlikda



Eksponatlar turi bo'yicha muzeylar fondi, birlik

| | Yil oxiriga asosiy fond eksponatlari soni | Ulardan hisobot yilda namoyish etilganlari | Noyob eksponatlar | Tiklash talab qilinadiganlar |
|---------------------------------------|--|--|----------------------|---------------------------------|
| Jami | 26851 | 5374 | 198 | 867 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
| Rassomlik | 183 | 136 | 1 | 4 |
| Grafika | 44 | 7 | - | 2 |
| Haykaltaroshlik buyumlari | 32 | 5 | 1 | 5 |
| Amaliy san'at buyumlari | 1337 | 545 | 26 | 70 |
| Numizmatika buyumlari | 9085 | 233 | 65 | 154 |
| Arxeologiya buyumlari | 1405 | 248 | 72 | 244 |
| Maishiy va etnografiya buyumlar | 3178 | 1515 | 30 | 48 |
| Suratlar | 4088 | 1037 | - | 31 |
| Hujjatlar | 1726 | 289 | 3 | 253 |
| Boshqalar | 5773 | 1359 | - | 56 |

Bugungi kunda viloyatimiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar mavjud bo'lib, 2020- yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni 26851 tani tashkil etgan. Noyob eksponatlar soni esa, 198 taga teng. Muzey eksponatlarining 183 tasi rassomlik, 44 tasi grafika, 32 tasi haykaltaroshlik, 1337 tasi amaliy san'at, 9085 tasi numizmatika, 1405 tasi arxeologiya buyumlari, 3178 tasi maishiy va etnografiya buyumlari hamda 4 088 tasi suratlar, 1726 tasi hujjatlar va 5773 tasi boshqa eksponatlardan iborat.

KONSERT TASHKILOTLARI

Navoiy viloyatida 2020- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 2 ta. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 2019- yilda 143 tani tashkil etgan bo'lsa, 2020- yilga kelib esa konsertlar soni 26,7 % (41 ta) ga kamaygan. Shuningdek, tinglovchilar soni 2020- yilda jami 17,1 ming nafarga teng bo'lgan.

2010-2020 yillarda Navoiy viloyatida konsert tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

| | 2010- y. | 2015- y. | 2017- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|----------|----------|----------|----------|----------|
| Konsert tashkilotlari soni, birlikda | 1 | 1 | 1 | 2 | 2 |
| Konsertlar soni, birlikda | 4 | 4 | 102 | 143 | 41 |
| Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar, ming kishi | 11,5 | 2,4 | 51,0 | 56,5 | 17,1 |

2020- yilda konsert tashkilotlarining faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanganida, gastrol-konsert tashkilotlari – 1 tani hamda konsert zallari – 1 tani tashkil etgan.



MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI

2020- yilda viloyatimizda jami 9 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lib, ularning umumiy maydoni 80,4 hektardan iborat. Madaniyat va istirohat bog'larida dam olish ob'ektlari soni – 49 ta, jami attraksionlar soni 94 tani tashkil etgan. Shundan, 31,9 % Navoiy shahri (30 ta attraksion), 25,3 % Xatirchi tumani (24 ta), 17,0 % Karmana tumani (16 ta), 11,7 % Zarafshon shahri (11 ta), 6,4 % Uchquduq tumani (6 ta), 5,3 % Qiziltepa tumani (5 ta), va 2,1 % Navbahor tumani (2 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Madaniyat va istirohat bog'lariga jami tashrif buyurganlar soni 98,6 ming kishini tashkil etib, shundan tashrif buyuruvchilarning 53,7 % bolalar (52,9 ming nafar) dan iborat. 2020- yilda madaniyat va istirohat bog'laridagi umumiy ishchi xodimlar soni 39 kishini tashkil etgan, ulardan 6 nafari yoki 15,4 % ayollardan iborat.

2020- yilda Navoiy viloyatida madaniyat va istirohat bog'larining asosiy ko'rsatkichlari, birlik

| | Madaniyat va istirohat bog'lari soni | Dam olish ob'ektlari soni | Attraksionlar soni |
|------------------------|---|------------------------------|-----------------------|
| Navoiy viloyati | 9 | 49 | 94 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Navoiy | 1 | 22 | 30 |
| Zarafshon | 1 | 3 | 11 |
| G'ozg'on | - | - | - |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Konimex | 1 | 1 | - |
| Karmana | 1 | 3 | 16 |
| Qiziltepa | 1 | 6 | 5 |
| Navbahor | 1 | 1 | 2 |
| Nurota | 1 | 5 | - |
| Tomdi | - | - | - |
| Uchquduq | 1 | - | 6 |
| Xatirchi | 1 | 8 | 24 |

MADANIYAT MARKAZLARI

Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatiga ommaviy madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari, mavzuli va adabiy-badiiy kechalar, teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, konsertlar tashkil etish kiradi.

2020- yilda madaniyat markazlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

| | Muassasalar soni, birlikda | Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, birlikda | Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirop etganlar, ming kishi |
|------------------------|-------------------------------|---|--|
| Navoiy viloyati | 32 | 1035 | 253,3 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Navoiy | 1 | 94 | 17,8 |
| Zarafshon | 1 | 55 | 13,0 |
| G'ozg'on | - | - | - |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Konimex | 3 | 48 | 8,5 |
| Karmana | 5 | 187 | 29,1 |
| Qiziltepa | 5 | 188 | 60,3 |
| Navbahor | 6 | 155 | 49,4 |
| Nurota | 3 | 85 | 33,4 |
| Tomdi | 1 | 51 | 4,3 |
| Uchquduq | 1 | 20 | 5,0 |
| Xatirchi | 6 | 152 | 32,5 |

Madaniyat markazlarida jami 1035 ta madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib, ulardan 309 ta ommaviy, madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari, 359 ta mavzuli, adabiy-badiiy kechalar, 94 ta teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, 273 ta konsertlar ulushiga to'g'ri keladi. O'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tashrif buyurganlarning umumiy soni 253,3 ming kishini tashkil etgan.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel.: 79-223-54-98